

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2024- yilning yanvar-iyun oylarida Xorazm viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinnarda – YAHM) hajmi joriy narxlarda 18 337,2 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2023- yilning yanvar-iyun oylari bilan taqqoslaganda 5,4 % ga o'sdi.

YAHM deflyator indeksi 2023- yilning yanvar-iyun oylari narxlariga nisbatan 110,9 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIMning shakllanishida Xorazm viloyatining qo'shgan hissasi 3,2 % ga yetdi.

**2024- yilning yanvar-iyun oylarida Xorazm viloyatida  
ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot**



105,4 %

18 337,2 mlrd. so'm



110,9 %

3,2 %

- YAHM o'sish sur'ati
- YAHM hajmi
- YAHM deflyator indeksi
- YAIMga qo'shgan hissasi





## YALPI HUDUDIY MAHSULOTNI ISHLAB CHIQARISH

2

2023-2024- yillarning yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari

	Mlrd. so'm		O'sish sur'atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da
	2023- yil	2024- yil	
<b>I. YAHM, jami</b>	15 683,7	18 337,2	105,4
<i>shu jumladan:</i>			
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	15 247,0	17 905,4	105,5
mahsulotlarga sof soliqlar	436,7	431,8	102,7
<b>II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati</b>	<b>15 247,0</b>	<b>17 905,4</b>	<b>105,5</b>
<b>qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi</b>	<b>5 989,8</b>	<b>6 663,4</b>	<b>104,2</b>
<b>sanoat (qurilishni qo'shgan holda)</b>	<b>3 658,8</b>	<b>4 501,6</b>	<b>107,8</b>
sanoat	2 593,4	3 250,6	107,0
qurilish	1 065,4	1 251,0	109,7
<b>xizmatlar</b>	<b>5 598,4</b>	<b>6 740,4</b>	<b>105,4</b>
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	872,1	1 024,8	109,0
tashish va saqlash, axborot va aloqa	861,8	1 120,4	112,2
boshqa xizmat tarmoqlari	3 864,5	4 595,2	103,1



Quyida keltirilgan infografikadan ko'rinib turganidek, aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 9 157,6 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 3,5 % ga yuqoridir.

## 2023-2024- yillarning yanvar-iyun oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHM hajmi (ming so'mda)



## 2023-2024- yillarning yanvar-iyun oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHMning o'sish sur'atlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % hisobida)





## YALPI HUDUDIY MAHSULOTNI ISHLAB CHIQARISH

4

**2023-2024- yillarning yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi  
(jamiga nisbatan % da)**

	2023- yil	2024- yil
<b>I. YAHM, jami</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>		
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	97,2	97,6
mahsulotlarga sof soliqlar	2,8	2,4
<b>II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	39,3	37,2
<b>sanoat (qurilishni qo'shgan holda)</b>	<b>24,0</b>	<b>25,2</b>
sanoat	17,0	18,2
qurilish	7,0	7,0
<b>xizmatlar</b>	<b>36,7</b>	<b>37,6</b>
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	5,7	5,7
tashish va saqlash, axborot va aloqa	5,7	6,3
boshqa xizmat tarmoqlari	25,3	25,6



2024- yilning yanvar-iyun oylarida hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 97,6 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 2,4 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi 37,2 % ni, sanoat tarmog'i 18,2 % ni, qurilish 7,0 % ni va xizmatlar sohasi 37,6 % ni tashkil qildi.

### 2023-2024- yillarning yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

2023- yil



2024- yil



● Yalpi qo'shilgan qiymat


● Mahsulotlarga sof soliqlar



YAHM o'sishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'i 1,6 f.p. (2023- yilning yanvar-iyunida – 2,3 f.p.), sanoat tarmog'i – 1,1 f.p. (2023- yilning yanvar-iyunida – 0,7 f.p.), qurilish tarmog'i – 0,7 f.p. (2023- yilning yanvar-iyunida – 0,5 f.p.) va xizmat ko'rsatish sohasi – 2,0 f.p. (2023- yilning yanvar-iyunida – 1,6 f.p.) ijobiy hissa qo'shdi.


Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YAHM 0,08 f.p. (2023- yilning yanvar-iyunida – 0,3 f.p.)ga ko'paydi.

### 2024- yilning yanvar-iyun oylarida YAHM o'sishida tarmoqlarning hissasi (jamiga nisbatan % da)



2024- yilning yanvar-iyun oylarida YAHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobjiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 104,2 % (YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 37,2 %), sanoatda – 107,0 % (18,2 %), qurilishda – 109,7 % (7,0 %), xizmatlar sohasida – 105,4 % ni (37,6 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 109,0 % (5,7 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 112,2 % (6,3 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 103,1 % dan (25,6 %) iborat bo'ldi.

**2023-2024- yillarning yanvar-iyun oylarida YAHMning  
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari  
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)**



2024- yilning yanvar-iyun oylarida YAHM deflyatori indeksi 2023- yilning yanvar-iyun oylaridagi narxlarga nisbatan 110,9 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari sanoatda – 117,2 % va xizmatlarda – 114,2 % qayd etildi.

**2023-2024- yillarning yanvar-iyun oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi  
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)**

2023- y.

2024- y.



YAHM

109,2 %

110,9 %

Qishloq, o'rmon  
va baliqchilik xo'jaligi

110,0 %

106,7 %



Sanoat

108,7 %

117,2 %



Qurilish

113,5 %

107,0 %



Xizmatlar

110,1 %

114,2 %



2024- yilning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik 11 930,6 mlrd. so‘mni tashkil etdi (2023- yilning yanvar-iyun oylarida – 10 181,6 mlrd. so‘m). YAHMdagi ulushi 66,6 % ni 2023- yilning yanvar-iyun oylarida – 66,8 %) tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining o‘tgan yilning mos davriga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan bog‘liq.

**2023-2024- yillarning yanvar-iyun oylarida kichik biznesning  
hajmi va YAHMdagi ulushi  
(jamiga nisbatan %da)**

